



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10-ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

сюжеттерімен де молыға бастады. Алайда, бұл дастандар сол қалпында көрініс тапқан жоқ, қазақ даласында жырланғаннан кейін қазақ фольклорының заңдылықтарына сәйкес көптеген өзгерістерге ұшырап отырды. Яғни, бұрыннан қалыптасқан фольклорлық қалыпқа түсіп, көшпелі елдің ұғымына сай, оның түсінігіне жақын түрде өз формасынан айрылып, ондағы сюжеттер сақталып отырғанымен, жырлану барысында қазақтың ауыз әдебиетінің үлгілеріне орай өзгерістерге ұшырап отырды.

Пайдаланған әдебиеттер тізімі

- 1 С.Сейфуллин. Қазақ әдебиетінің қысқаша тарихы//Еңбекші қазақ. №68, 1924 19-ақпан.
- 2 Қазақ әдебиетінің қысқаша тарихы. 1-кітап: Оқу құралы. – Алматы: Қазақ университеті, 2001. 467 б.
- 3 Келімбетов Н. Ежелгі дәуір әдебиеті. Толықтырылып екінші рет басылуы. Алматы: Ана тілі, 1991.
- 4 Қосанов С. Базар жырау Оңдасұлының әдеби мұрасы. (Ақындық дәстүр, жанр, поэтика). 10.01.02 – қазақ әдебиеті мамандығы бойынша филология ғылымдарының кандидаты ғылыми дәрежесін алу үшін дайындаған диссертацияның авторефераты. – Алматы, 2005. 28 б.
- 5 Қазақ әдебиетінің тарихы. Қазақ халқының ауыз әдебиеті. Екінші кітап. Алматы, ҚазССР. Ғ.А. баспасы: 1964.
- 6 Кумисбаев У.К. Казахские и персидско-арабские литературные связи XIX-XX вв. – Алма-Ата: Наука КазССР, 1990. – 136с.
- 7 Бөжеев М., Ахметов З. Қазақ әдебиетінің шығыс әдебиет сюжетімен байланысы. Қазақ әдебиетінің тарихы. 2.т. 1-кітап. Алматы: Қазақ ССР Ғылым академиясының баспасы, 1961, 556 б.

ALISHER NAVOIY BADAXSHON SHOHI VA SHOIR SULTON MUHAMMAD LA'LIY IJODI TADQIQOTCHISI (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)

Qorayev Sherxon Po'latxonovich,

Qarshi shahridagi Xalqaro innovatsion universiteti dotsenti, (PhD).

sherxonqorayev@gmail.com

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/GSDH8096

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada Badaxshon hukmdori Sulton Muhammad La'liy hayoti va ijodi buyuk mutafakkir Alisher Navoiy hamda uning zamondoshlari asarlari ma'lumotlari asosida yoritiladi. Sulton Muhammad La'liy o'z davrining yetuk shoirlaridan biri bo'lib, uning atrofida taniqli shoirlar to'plangan edi.

Hukmdorlar shoiri boshchiligida Badaxshon saroyida mushoira kechalari o'tkazilgan.

Kalit so'zlar: Tazkiralari, Badaxshon saltanati, Iskandar Faylaqus, isyonkor podshoh, xushta'b.

Abstract. This article examines the life and literary contributions of Sultan Muhammad Lali, the ruler of Badakhshan, drawing upon the works of the eminent thinker Alisher Navoi and his contemporaries. Sultan Muhammad Lali was among the most distinguished poets of his era, attracting renowned literary figures to his court. Under his patronage, the Badakhshan palace became a center for literary gatherings, where poetry and intellectual discourse flourished. The

study highlights his role in fostering a vibrant literary environment and his significance within the broader cultural and poetic landscape of his time.

Keywords: *Tazkiras, Badakhshan kingdom, Iskandar Failaqs, rebellious king, kushtab.*

O'rta asrlarda Sharq hukmdorlarining ko'pchiligi ijod bilan shug'ullangan, she'rlar yozib, devonlar tuzishgan. O'z saroylarida shoirlar, adiblar, ziyolilarni to'plab, mushoira kechalarini o'tkazishgan. Bu esa mamlakatda mumtoz adabiyot va san'atni rivojlanishiga olib kelgan.

Tarixiy va adabiy manbalarda badiiy ijod bilan shug'ullangan Shohi Badaxshon Sulton Muhammad haqida qisqacha bo'lsa-da, ayrim ma'lumotlar uchraydi. Ammo ko'pchiligimiz o'z davrida olamda mashhur bo'lgan Badaxshon (Bu mamlakat bugungi G'arbiy Pomir va Shimoliy – sharqiy Afg'oniston hududlarida joylashgan o'lka bo'lgan) hukmdori haqida muayyan tasavvurga ega emasmiz. Mutafakkir shoir Alisher Navoiy *"Majolis un-nafois"* tazkirasining ikkinchi majlisida *"faqir (Navoiy) alardan ba'zining mulozamatiga kichiklikda yetibmen va ba'zining suhbatiga yigitlikda musharraf bo'libmen"* [Navoiy, 1966:200], deb, 26 yoshida uchrashgan Shohi Badaxshon – Sulton Muhammad podshoh to'g'risida ayrim ma'lumotlarni keltirgan. Darhaqiqat, u Navoiy fikriga qaraganda, *"bag'oyat xushtab' va parhezkor mo'min bo'lgan. Va Badaxshon saltanati necha yil uning xonadoni qo'lida bo'lib, hech podshoh ola olmagan"* [Hiraviy, 2014: 50]. Sulton Muhammad Badaxshiy tog'li o'lka – Badaxshon podshohligini uzoq yillar mobaynida boshqarib kelgan. Bobur Mirzo ta'biri bilan aytganda, *"(mo'g'il xoni Yunusxonning xotini) Shohbegim Badaxshon shohi Shoh Sulton Muhammadning qizi edi. Badaxshon shohlari o'z nasablarini Iskandari Faylaqusga (Makedoniyalik Iskandar) bog'lashadi, deydilar. Bu shohning yana bir qizi (Shahzodabegim)ni Shohbegimning egachisini Sulton Abusaid Mirzo olgan edi. Undan Abobakr Mirzo bino bo'lgan edi"* [Bobur, 2008:35]. Badaxshon shohlari Amir Temur va temuriylar xonadoni hokimiyatini tan olib, ularning nomidan davlatni idora qilganlar. Biroq, keyinchalik mustaqillikka intilganliklari temuriylar saltanati hukmdori Sulton Abusaid Mirzoning g'azabini keltirgan. Temuriy hukmdor Abusaid Mirzo badaxshonliklar isyonini bostirib, shoh Sulton Muhammadni toj-u taxtdan mahrum etgan va isyonkor Shoh Muhammad Sulton La'liy va uning o'g'li Ibn La'liyni Hirotda olib kelib qatl etgan. Shoh La'liy – Sulton Muhammad qatl etilgunga qadar Hirotda ushlab turilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasida yozilishicha, aynan ana shu payt u Alisher Navoiy bilan tanishgan va yaqinlashgan [Bobur ensiklopediyasi, 2014:578]. Aksincha, Alisher Navoiy ungacha ham Badaxshon shohini tanigan va u bilan uchrashgan, Badaxshonga borgan, hukmdorlar shoirining adabiy majlislarida ishtirok etgan bo'lishi mumkin. Holbuki, Navoiy o'zi tanigan va yaqindan bilgan shohning Hirotda tutib turilganini eshitib, undan xabar olgani huzuriga borgan, ehtimol. Har holda o'z eski qadrdonini yo'qlamaslikka Navoiyning vijdoni yo'l qo'ymas edi.

Xo'sh, Badaxshon shohi Sulton Muhammad temuriylar saltanatining hukmdori Abusaid Mirzo tomonidan qachon qatl etilgan? Davlatshoh Samarqandiy Hirotda shohning qatl sanasini 1467 yil deb ko'rsatgan. Demak, Navoiy Badaxshon shohi bilan aynan shu yil uchrashgan hamda u shahid etilgach, shoir ayrim navoiyshunoslar aytganidek, 1465-yilda emas, balki 1467-yilda Samarqand shahriga ketgan. Balki, Navoiyning Samarqandga surgun qilinishining sabablaridan biri – uning Badaxshon shohi bilan bo'lib o'tgan uchrashuvi ham bo'lishi mumkin. Sulton Abusaid Mirzo mamlakatda mashhur bo'lgan Navoiyning ruxsatsiz isyonkor podshoh bilan

uchrashuvidan qattiq g'azablangan hamda shu vaj bilan uni ko'zidan uzoqroq shaharga yuborgan. Sharqshunos Bertels fikriga ko'ra, *"O'sha davrlarda Hirotga Badaxshondan kelganlar ham yashardi. Ulardan biri – Abdusamad Badaxshoniya Abusa'id tarixini she'r bilan yozish topshiriladi. Mazkur tarix bilan tanishgan Alisher (Navoiy) o'zining g'azallaridan birida u vazn bilan bog'liq xatoga yo'l qo'yganini ko'rsatadi va muloqot ularni yaqinlashtiradi. Alisher (Navoiy) Abdusamad (Badaxshiy) orqali ilgari Badaxshonda hukmronlik qilgan sulolaning she'riyat ixlosmandlari bo'lgan va o'zlari ham she'rlar bitgan vakillari La'liy (Shoh Badaxon) va (uning o'g'li) Ibn La'liy bilan tanishadi. 1466-67-yillarda ular Abusa'idga qarshi isyon ko'taradilar va Badaxshon hokimiyatini egallaydilar. Abusa'id bu viloyatni qaytadan ishg'ol qilishiga to'g'ri keladi. Sobiq sulolaning barcha vakillari asrga olinadi va qatl etiladi.*

Shunday qilib, Alisher (Navoiy) xavf ostida qoladi va Hirotni tashlab ketishga majbur bo'ladi. U Samarqandga jo'nab ketadi [Bertels, 2015:114-115]". Sharqshunos olim Bertelsning fikridan shunday xulosa chiqadiki, Navoiyning Samarqandga ketishining asosiy sabablaridan biri (biz yuqorida aytganimizdek) – shoirlar sultoni va Badaxshon shohi Sulton Muhammad o'rtasidagi qalin va iliq munosabatlar hamda ijodiy hamkorlik bo'lgan. Shuningdek, shoir shoh tomonidan ko'tarilgan isyonda alaqaqorlikda ayblangan bo'lishi ham mumkin. Aftidan, qo'zg'olondan so'ng Sulton Abusa'id Badaxshon shohi Sulton Muhammadning do'stlaridan bo'lgan Navoiy siymosida o'zining dushmanini ko'rib, uni Samarqandga yuborgan. Qolaversa, Bertels mulohazalaridan Navoiy Badaxshonda bo'lgan, degan fikr uyg'onadi. Bizning nazarimizda, Bobur bilmagan yoki aytishni istamagan Navoiyning Samarqandga "ixroj (surgun)" bo'lish sabablaridan biri ham shu emasmikan?

Albatta, navoiyshunoslar shoirlar sultonining Samarqandga borishining bir qancha vajlarini keltirishgan. Adabiyotshunos olim Vahob Rahmon shoirning Samarqandga surgun qilinishining boshqa sababini ko'rsatgan: *"(Mashhadda) Madrasini xatm qilib, Hirotga qaytgan Alisher Navoiy yangi hukmdor Abusa'id Mirzo qabulida bo'ldi. Biror soatlik suhbatdan so'ng Xuroson va Movarounnahr hukmdori o'z mamlakatida Alisher Navoiychalik zabardast qalam egasi yo'qligiga va buningchalik donishmand kishi ozligiga amin bo'ladi. Biz bu xulosaga uning ikkita ishi yuzasidan kelmoqdamiz:*

-Saroy musavvirlari va xattotlariga Navoiy devonini shohona qilib tayyorlash haqida buyruq berildi;

- Alisher Navoiyni o'g'li Abobakr Mirzoga o'qituvchi qilib tayinladi.

Xondamirning "Habib us-siyar" asaridagi ma'lumotlarga qaraganda, shoirning otasi G'iyosiddin ham Abusa'id Mirzo e'zozida bo'lgan.

Ilmda "Ilk devon" nomi bilan tanilgan devon Abusa'id Mirzo topshirig'i natijasi edi. Ana shunday qilib, Alisher Navoiyning talabalik yillarida yozgan she'rlari saroy rassomlari tomonidan har bir sahifasi bezatilib, zarhallana boshlandi. Sulton Ali Mashhadiy xatida ko'chirib, nihoyasiga yetkazildi. Bu hodisa 1465 yil sodir bo'lgan edi [Rahmon, 2015:14-15]". Bundan chiqdi, shoirlar sultoni va Sulton Abusa'id Mirzo o'rtasidagi munosabatlar dastlabki yillarda iliq kechgan, biroq bu munosabatlarga keyinchalik darz ketgan. Ammo, nima bo'lgan taqdirda ham hukmdorga ta'sir o'tkaza oladigan pir-u murshid Xoja Ahror Valiy shoir shogirdi Navoiyni hech kimga xafa qildirib qo'ymasdi. Chunonchi, adabiyotshunos Vahob Rahmon ulug' shoirning Samarqandga yuborilish sabablaridan biri sifatida – Navoiy va Xadichabegim o'rtasidagi muhabbat deb talqin qilgan: *"Alisher Navoiy va Xadichabegim sevgilari*

tarixini quyidagicha tasavvur qilaman: 1457-yilda Samarqand hukmdori Abusaid Mirzo kelib Hirotni egalladi. O'sha yili unga olti yashar Xadichani tortiq qildilar. 1463-yilda Alisher Navoiy Mashhaddan Hirotda qaytib, saroy xizmatida bo'ldi. Uning Abusaid Mirzoning o'g'li Abobakr Mirzoga saboq bergani ma'lum. Shunga qaraganda, shohning shoirga nisbatan mehri va ishonchi bo'lgan. O'sha paytda Alisher va Xadicha bir-birlarini yoqtirib qolgan bo'lishlari mumkin.

1465-yilda shoh Xadichaga uylanadi. Ko'p o'tmay "Alisher Navoiy Hirotdan chiqarib yuborilsin!" degan buyruq beriladi.

Navoiyning Hirotdan chiqarib yuborilishi haqidagi olimlarimiz mulohazalari: birinchisi, u Husayn Boyqaro maktabdoshi edi; ikkinchisi: shoirning tog'alari Abusaid Mirzoga dushman edilar; uchinchisi, shoir Abusaid Mirzo siyosatidan norozi edi.

Men Navoiy ijodini o'rganib bu mulohazalarga qo'shilolmadim. Sababi: agar o'sha da'volar rost bo'lsa, shoir boshdanoq saroyga yaqinlashtirilmas edi; shoh o'g'li tarbiyasini shoirga ishonib topshirmasdi...

Navoiy Sayyid Hasan Ardasheriga yozib qoldirgan she'riy maktubida quyidagicha misralar bor va unda sevgiga muhtalolik ham aytilgan.

Safar tushti oldiga beixtiyor,
Qazo amrida elga ne ixtiyor...
Anikim, qilib ishqdin yoralig',
Nasib aylabon anga ovoraliq'...

Alisher Navoiy Samarqandga jo'nar ekan, safar hislarimning o'tini so'ndirar, degan o'y-xayolda edi. Chunki, u "Safar ishq o'tini kamaytiradi", "Sayr ishqni kamaytiradi" degan hikmatlarni eshitgan edi. Biroq...

Ayladim azmi safar, bo'lg'ay debon ishq o'ti kam,
Ul xud afzun bo'ldi har manzil demaykim, har qadam.
Sayrkim, derlar, kam aylar ishqni, ko'r, ey rafiq,
Kim jahon ovorasi bo'ldim, g'alat chiqti bu ham!

Ushbu she'riy iqrorlar shoir muhabbatining har qadamda orta borganini ko'rsatmoqda, xolos...

Mavlono Xondamir va Zahiriddin Muhammad Bobur "Makorim ul-axloq" va "Boburnoma"da Navoiy Samarqandda asosan shahar hokimi Ahmad Hojibek davrasida yashardi, degan ma'lumotlarni beradilar. Agar Abusaid Mirzo roziligi va iltimosi bo'lmasa, u Samarqandga hokim qilib yuborgan Ahmad Hojibek Navoiyni o'z davrasida olib yura olarmidi? Albatta, yo'q [Rahmon, 2015:72-73].

O'rta asr tazkiralari Badaxshon hukmdori Sulton Muhammad ajoyib shoir bo'lganini va o'z saroyida shoirlar ishtirokida adabiy kechalar tashkil qilganini tasdiqlaydi. Alisher Navoiy ham avliyo Shayx Sadriddin Ravosiyning muridi – La'liy taxallusli taqvodor va shoir shohni "xushtab' va musulmonvash kishi" bo'lganini tazkirasida qayd etgan [Navoiy, 1966:43] va "Majolis"da nazarimizda, o'z tilidan yozib olgan (yoki eslab qolgan) quyidagi she'rini havola etgan:

Mo savdoi tu tarki jonu sar xohim kard,
Komi jon oxir z-la'lat purshakar xohim kard [Navoiy, 1966: 43].

(Mazmuni: Biz sening yo'lingda jon-u boshdan kechishni istaymiz, Sershakar labingdan komi jonni tilaymiz.)

Tazkiranavis Faxriy Hiraviy ham "Ravzat us-salotin" tazkirasida "Shoh she'rni yaxshi aytardi" [Hiraviy, 2014:50], degan va uning quyidagi misralarini keltirgan:

Chashmi sho'xi tu ki dar mamlakati jon zadu bo'rd,

*Turki mast ast bud odati turkon zadu bo'rd.
Dili xunini maro bayzai rangin paydo ast,
Yori kard labi yor badandon zadu bo'rd.*

(Mazmuni: Sho'x ko'zing jon mulkiga urdi-yu olib ketdi, Mast turk edi, turklarning odatini qilib olib ketdi. Mening qonli dilimdan tuxum bo'yaldi, Yorning labi yorlik qildi, tishladi-yu olib ketdi [Hiraviy, 2014:50].)

Albatta, o'rta asrlar musulmon Sharqi an'analari asoslansak, Badaxshon shohining saroyida ko'plab shoirlar yashab ijod qilgan, adabiy bazmlarda shohni madh etib, o'z qasidalarini o'qishgan. Tazkiranavis Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro"sida saroy shoiri Sohib Balxiy Badaxshon shohi Sulton Muhammadga bag'ishlangan qasidalar yozganligini qayd etgan: "*Badaxshon shohlari va Termizning ulug' sayyidlariga pokiza qasidalar bag'ishlagan.*

Ammo, Badaxshon podshohlari qadimiy sulola va karamli shohlardan edilar. Ba'zi (olimlar) ular nasabini Zulqarnayn nomi bilan mashhur Iskandar Faylaqusga bog'laydilar. Ular Eron-u Turon podsholari zamonida hamisha hurmat va ehtiromda edilar. Podshohlar Badaxshonga tegmas, ularning taraddud va mulozamatlari bilan qanoatlanardilar. Bu hol uzoq zamonlarda o'tgan podshohlar davridan davom etib kelgan. Baxtiyor xoqon Abusaid Sulton Badaxshon viloyatining latofat-u ob-havosi yaxshiligini eshitib, o'z tasarrufiga kiritmoqqa qaror qildi. Begunoh shohlarni qirib tashlashga bel bog'lab, lashkar tortdi va o'sha mamlakatni fath etdi. (So'ng) Sulton Muhammadshoh va uning avlod hamda qarindosh-urug'larini o'ldirishga buyurdi. 1467- (Hijriy 871) yili o'sha mazlum shohlar Sulton Abusaid amri bilan shahid etildilar. Sohibkaram shohlarning qadimiy xonadoni vayron bo'lib, ularning nasli uzilib qoldi. O'sha muborak xonadonga qilingan qasd Sulton Abusaidga baxt keltirmadi. Oradan ko'p o'tmay, ularga bir qultum (zahar) ichirgan idishdan o'zi ham no'sh etdi [Davlatshoh, 1981:179]". Manbalarda yozilishicha, shoir Xoja Mahmud Xurosondan Badaxshon shohi saroyiga borgan va adabiy majlislarida qatnashgan. Davlatshoh Samarqandiyga ko'ra, "Baxtiyor shoh Sulton Muhammad Badaxshoniy fozil va saxovatli, andishali, she'r-u shoirlikdan xabardor edikim, Xoja Mahmudning boshini siladi. U shoh in'om etgan mollarni sarmoya qilib, (ko'p o'tmay) moldor savdogar Xoja Buzurg bo'lib oldi [Davlatshoh, 1981:178]". Taxminimizcha, Navoiy ham Sulton Muhammadshohning adabiy davralarida ishtirok etgan bo'lishi mumkin.

Yuqorida Bertels aytganidek, Badaxshon shohi La'liy o'g'li Ibn La'liy bilan qatl etilgach, hukmdorning do'sti Navoiy xavf ostida qolgach, shoirning Samarqandga Abusaid Mirzo ko'zidan uzoqroq bo'lishi uchun "ketishiga" yoki "qochishi"ga to'g'ri keladi. Ayrim adabiyotshunoslar shoir Samarqandga bir necha bor borganini ta'kidlashgan. Tadqiqotchi olim Abdurasul Eshonboboyev "Navoiy tarjimai holiga doir yangilik" maqolasida yozishicha, Ergash Rustamovning 1963-yili rus tilida e'lon qilingan "Stranisы iz biografii Alishera Navoi" nomli maqolasiga ko'ra, Navoiy Samarqandda ikki marta bo'lgan. Dastlabki safar 1458-1459-yillarda tahsil maqsadida amalga oshirilgan [<https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/abdurasul-eshonboboyev-navoi-tarjimai-holiga-doir-yangilik/>]. Bunda sharqshunos olim shoirning «Majolis un-nafois» asaridagi ikkinchi majlisida keltirilgan quyidagi so'zlariga asoslanadi: «Ul jamoati azizlar zikridakim, faqir alardin ba'zining mulozamatig'a kichiklikda yetibmen va ba'zining suhbatig'a yigitlikda musharraf bo'libmen». Ushbu majlisda shoir yoshligida uchrashgan Sharofiddin Ali Yazdiy, Abulays Samarqandiy, Shayx Sadriddin Ravosiy, Kamol Turbatiy, Mavlono Lutfiy va u Samarqandda tanishgan shoirlar zikr

etilgan. Bundan tashqari, Sulton Husayn Boyqaro 1458-yili Astrabodni egallab, Sulton Abusaid bilan do'stona munosabatlar o'rnatgan va uning nomi bilan tilla tanga zarb qilgan. Muarrix Abdurazzoq Samarqandiy esa sulton tomonidan elchi bo'lib, Astrobodga Husayn Boyqaro huzuriga borgan. Bu davrda shoir 18 yoshlar atrofida bo'lib, sulton uchun hech qanday xavf tug'dirgan emas. Ushbu dalillardan kelib chiqib, olim Navoiy Samarqandga dastlab 1458-1459-yillari tahsil uchun borgan, degan yangi mulohazani bildirgan edi.

Biz dalillarga qo'shimcha qilib ayrim faktlarni keltirmoqchimiz. Bartold risolasida 1457-1469-yillar voqealari xususida to'xtalib, Alisherning otasi G'iyosiddin Kichkina tarixchi Mirxondning otasi va boshqalar bilan birga, 1458-yili temuriyzoda Mirzo Ibrohim tomonidan Balx shahriga Abusaid huzuriga elchi sifatida borgan, deb yozgan edi. Holbuki, navoiyshunoslikda G'iyosiddin Kichkinaning 1452-1453-yillari vafot etgani ko'p bora ta'kidlangan. Masalan, «O'zbek adabiyoti tarixi»da o'qiyamiz: *«G'iyosiddin Kichkina Navoiy taxminan 12 yoshlarda ekanida hayotdan ko'z yumadi. Otasidan yosh yetim qolgan Alisher Abulqosim Bobur xizmatiga kiradi»*. Bartold G'iyosiddin Kichkina bilan bog'liq ma'lumotni «Habib us-siyar» tarixiy asaridan olgan. O'sha davr tarixchisi Abdurazzoq Samarqandiy esa kitobining *«Islom mashoyixlarining sulh tuzish uchun Balx tomonga borganliklari zikri»* qismidagi voqeaga batafsil to'xtaladi, biroq nima uchundir Alisherning otasi ismini ko'rsatmaydi[<https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/abdurasul-eshonboboyev-navoi-tarjimayi-holiga-doir-yangilik/>].

Yuqoridagi mulohazalarni umumlashtirib aytish kerakki, Alisher otasi hayotlik chog'ida va uning ko'magi bilan birinchi marta Samarqandda tahsil olish uchun yo'l olgan. Ergash Rustamov fikrlariga ikkinchi qo'shimcha sifatida shuni aytish mumkinki, G'iyosiddin Kichkina Abusaidning (ham) mulozimi bo'lgan. Bu haqda «Latoyifnoma» muallifi Faxriy Hirotiy shunday yozadi: *“Mirning tarjimayi holidan xabardor mo'ysafid tarixchilar va to'g'ri so'zli dunyo ko'rganlar o'z asarlarida shunday keltiradilarkim, Mirga amirlik mansabi merosiydir. Uning otasi Amir Kichkina Sulton Abusaidning xizmatida edi. Garchi muhr-u mansab bo'lmasa ham katta hurmatga ega edi. Ona tomonidan bobosi Amir Shayx Abu Sa'id Chang Mirzo Boyqaro xonadonida amir ul-umaro edi”*. Aynan shunday ma'lumotni ikkinchi bir manba, Som Mirzoning «Tuhfayi Somiy» asarida ham uchratamiz.

Sharqshunos Ergash Rustamov so'zlariga ko'ra, Navoiyning Samarqandga ikkinchi safari 1467-1469-yillarda amalga oshgan. Bu davrda Sulton Abusaid Badaxshonni egallab, hukmdor La'liy va uning o'g'lini o'ldiradi. Navoiyning ular bilan munosabati yaxshi bo'lib, Abusaidga shubha uyg'otmaslik maqsadida hamda yoshlik yillarida mehr-muruvvat ko'rgan shaharga panoj izlab boradi.

Ikkinchidan esa, yuqorida aytganimizdek, Mirzo Bobur «Boburnoma»da Ahmad Hojibekni shoirning Samarqanddagi «murabbiy va muqavviysi» deb yozgan. Ahmad Hojibek 1464-yili Samarqand hokimi etib tayinlanadi, bundan o'n yil muqaddam esa (1455-1464-yillarda esa) u Hirot shahri hokimi bo'lgan. Demak, shoir Ahmad Hojibekni homiy bilib Samarqandga yo'l olgan [<https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/abdurasul-eshonboboyev-navoi-tarjimayi-holiga-doir-yangilik/>].

Muxtasar aytganda, yuqorida zikr etilganidek, shoh Hirotga bandi etilganda, Navoiy yana bir bor shoh bilan uchrashish va suhbatlashish baxtiga muyassar bo'lgan. Biroq suhbatning tafsilotlari manbalarda keltirilmagan. Albatta, ikki shoirning muloqoti she'r va shoirlik xususida bo'lgan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Ammo,

hamma gap, shoirda katta taassurot qoldirgan bu suhbat va La'liy satrlarining bir umr uning xotirasida muhrlanib qolganida! Yigirma to'rt yildan so'ng esa shoh va uning o'g'li haqidagi ma'lumotlar shoirlar tazkirasi – "Majolis un-nafois"da katta ehtirom bilan bitiladi va shohga abadiy haykal qo'yiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Majolisun-nafois. – T.: G'G'ulom nomidagi BAN, 1966. – B. 30.
2. Faxriy Hiraviy. Ravzat us-salotin. – T.: Mumtoz so'z, 2014. – B. 50.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: O'qituvchi, 2008. – B. 35.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. – T.: Sharq NMAK BT, 2014.– B. 578.
5. Bertels Y. Navoiy. T.: Tafakkur qanoti, 2015. – B. 114-115.
6. Rahmon V. Mumtoz so'z sehri. T.: O'zbekiston, 2015. – B. 14-15.
7. G'iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq. – Toshkent: G'G'ulom nomidagi NMIU-2015. – B. 208.
8. G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. – Toshkent: O'zbekiston, 2013. – B. 1077.
9. Navoiy zamondoshlari xotirasida. Tuzuvchi: B.Ahmedov. – Toshkent: G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1985. – B. 224.
10. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo'stoni. («Tazkirat ush-shuaro»dan). Fors-tojik tilidan B.Ahmedov tarjimasi. – T: G'G'ulom nomidagi ASN, 1981.– B. 188-197.
11. Davlatshohi Samarqandiy. Tazkiratu-sh-shuaro. – Xo'jand: Noshir, 2015. – S. 544.
12. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipologik tekstologik tahlili. –T.: "Akademnashr", 2011. – B. 326.
13. Qorayev Sh. Navoiy adabiy majlislari. – Qarshi: "Qashqadaryo ko'zgusi OAV", 2019. – B. 180.
14. Qorayev Sh. Navoiy majlislari. – Toshkent: Lesson – Press, 2020. – B. 312.
15. Qorayev Sh. Temuriylar davri adabiy majlislari (Alisher Navoiy qarashlari asosida). – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2021. – B. 262.
16. Qorayev Sh. Temuriy shoirlar tazkirasi. – Qarshi: Intellect, 2023. – B. 262.
17. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/abdurasul-eshonboboyev-navoi-tarjimayi-holiga-doir-yangilik>

ALISHER NAVOI'S CREATIVE WORKS: A SCIENTIFIC EXPLORATION

Akhlaque Ahmad 'Ahan',

Professor & Chairperson Centre of Persian and Central Asian studies, School of Language, Literature and Culture Studies, Jawaharlal Nehru University in New Delhi

Asror Allayarov,

Master's student of Jumabek Tashenev University
[10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/YUTP2193](https://tsuull.conf.navoiy.2025/YUTP2193)

Annotation: *Alisher Navoi (1441-1501), a prominent poet, philosopher, and statesman of the Timurid Empire, is celebrated for his significant contributions to Turkic literature. This article examines Navoi's literary achievements, focusing on his poetic collections, philosophical treatises, and cultural impact. The study employs a historical-analytical approach to explore the thematic richness, linguistic innovations, and socio-political relevance of his works. The findings underscore Navoi's role in elevating Chagatai Turkic as a literary language and his enduring influence on subsequent generations of writers and intellectuals.*

Key words: *Alisher Navoi, Chagatai literature, Timurid Empire, poetry, Turkic language, cultural heritage.*

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alishir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhridin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majoziylik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimai xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o‘qitish bo‘yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San‘at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO‘XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g‘azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go‘zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o‘zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo‘llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug‘aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622